



Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirishning psixologik asoslari

¹ Fayziyeva Shoira Ayubovna

EMAIL : none

¹ Guliston Davlat Universiteti ,
Pedagogika va psixologiya
kafedrai o'qituvchisi.


ABSTRACT: O'quvchi-talabalar qalbi va ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shu asosda tashkil etish bugungi dolzarb vazifadir. Chunki chetdan bo'layotgan yot mafkuraviy tajovuzlar olish, yoshlarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish ishiga safarbar etish uchun ularning qalbi va ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirishda ma'naviy-ma'rifiy ish usullaridan keng foydalanishni talab etmoqda.

KEYWORDS: Milliy g'urur, yoshlar ongi va tafakkuri, milliy an'analar, innovatsion uslublar, interaktiv metodlar.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar milliy g'oya va mafkura tamoyillaridan kelib chiqqan holda, yosh avlod qalbi va ongida quyidagi ma'naviy-ruhiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- milliy g'oya va mafkuraga ishonirish;
- ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- yuksak e'tiqodni shakllantirish;
- ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy islohatlarning mohiyatini chuqur anglab yetish va faol ishtirok etishlariga ko'maklashish.

Boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat ruhida tarbiyalash, keng fikrli, sog'lom, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohatlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g'oya va mafkura mustahkam bo'lgan shaxslarni shakllantirishda ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilishining ahamiyati kattadir.



1- chizma. Mafkuraviy ta'lim-tarbiyaning amaliy funksiyalari.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida targ'ibot-tashviqotda rasmiyatchilikka, tadbirbozlikka chek qo'yishimiz kerak. Shuni doim yodimizda tutishimiz kerakki, balandparvoz, chiroyli so'zlar, quruq ma'ruzalar har qanday g'oyani obro'sizlantiradi. Yoshlar bilan teng muloqotga kirishish, ularning qalblariga xalqchilik, samimiyat bilan kirish, qanotlantirish, mafkuraviy kurashlar davrida milliy g'oya tashviqotini jangovar darajaga ko'tarish kerak.

Dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish orqali ularni hayotga tayyorlashda yangicha innovatsion uslublarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etib borishni taqozo etmoqda.

Ilmiy xulosalarga ko'ra, odamning xotirasida 90 % hollarda – o'zi bajargan ish, 50 % hollarda – ko'rgani va 10 % hollarda – eshitgani saqlanib qoladi. Demak, g'oyaviy tarbiyada yoshlarni ko'proq o'zlari bevosita ishtirok etadigan amaliy mafkuraviy ishlarga jalb qilishimiz kerak. Buning uchun targ'ibot-tashviqot ishlarining rang-barang, ta'sirchan usullarini joriy qilish lozim.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi davlat siyosati jamiyatda yuksak ma'naviy muhitni qaror toptirishga qaratilgan. Jamiyatni ma'naviy-axloqiy yangilash milliy taraqqiyot uchun zamin yaratibgina qolmay, unga kuch baxshida etadi. Shuni e'tiborga olib, talaba-o'quvchilarga yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy-axloqiy negizlari haqida tushunchalar berib borish lozim.

Davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari va ishlash tizimini yaxshi yo'lga qo'yish lozim. Bu tizimning samarali ishlashi uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar ruhiyatining rivojlanishi va kamol topishida balog'at davri muhim bosqich hisoblanadi. Xuddi mana shu davrda olamga ham, muhitga ham qiziqishlar keskin ortadi. Barqarorlik belgilari namoyon bo'la boshlaydi. Aksariyat bolalarga atrofdagilar ularni tushunmayotgandek yoki tushunishni istamayotgandek tuyuladi.

Yurish-turishlarida keskin o'zgarishlar yuz beradi. Yoshlarni duch kelishi mumkin bo'lgan turli ko'ngilsizliklardan asrash, ma'naviy kamol toptirish uchun ular ruhiyatiga vafo, burch, vijdon, tashabbuskorlik, sadoqat, faollik, mas'uliyat kabi xislatlarni turli ma'rifiy usullardan foydalangan holda singdirib borish lozim.

Bu borada yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning interaktiv metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarda interaktiv metodlarni qo'llash shart-sharoitlarini bilim muhim. Bunda faol, hayotiy pozitsiyani shakllantiruvchi metodlarni qo'llash samara beradi. Yoshlarda lider (sardorlik) sifatlarini hamda jamoada o'z o'rnini topa olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarur.

Respublikamizda bevosita fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul qilingan. Ammo mazkur qonunlarni yoshlar tomonidan anglash va hayotda qo'llay olish ko'nikmalari hozircha ko'ngildagidek emas. Bu esa, yoshlarning qonunlar to'g'risida bilim va ko'nikmalarini izchil rivojlantirishni talab etadi.

Fuqarolik jamiyati asoslarining pirovard maqsadi – inson hayotini muayyan ma'naviy maromlarda muvofiqlashtirish, har bir shaxsning insoniy potensialini yuzaga chiqazishdan iboratdir. Zero, inson omilini faollashtirishda kishilarning huquqiy bilimliligi roli kattadir. Ya'ni, huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan jamiyat mustahkam bo'ladi va millat birligi kuchayadi.

Har qanday jaholatdan insonni ma'rifat qutqaradi. Shuni hisobga olib, yoshlarga «Jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili mohiyatini tushuntira borish lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijalarini sarhisob qilish, erishilgan yutuqlarni va kamchiliklarni aniqlab, tahlil qilib borish lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimli rejalashtirilib amalga oshirilsa va baholansa, istiqboldagi vazifalarni aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba-o'quvchilar qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirishda pedagogik va psixologik hamkorlik texnologiyalarini yaratish zarur. Bunda birgalikdagi harakat, tarqatma material, mustaqil ish, trening, o'yinlar, ssenariy, ishontirish va h.k.larni amalga oshirish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. G'oziyev E. Kasb psixologiyasi. — T.: O'MU, 2015
2. Psixologiya fani XXI asrda. (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). — T.: O'MU, 2002.
3. Q. Nazarov. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. — T.: «Ijod dunyosi». 27 bet.
4. www.Ziyonet.uz